

PAPER

RAQAMLI IQTISODIYOTDA ISHLAB CHIQRARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XARAJATLARNI BOSHQARISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Abdujalilova Oyzoda Almahammad qizi^{1,*}

¹Agrobiznes va raqamli iqtisodiyot fakulteti, Iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi 4-bosqich 95-guruh talabasi

* oyzodaabdujalilova.2004@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada Raqamli iqtisodiyotda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda xarajatlarni boshqarishning innovatsion yondashuvlari xarajatlarni optimallashtirish va samaradorlikni oshirish uchun raqamli texnologiyalar, shu jumladan sun'iy intellekt (AI), mashinasozlik, katta ma'lumotlar tahlili, avtomatlashtirish, "aqli" tizimlar va raqamli platformalardan foydalanishni o'z ichiga olishini va bu yondashuvlar xarajatlarni real vaqtda nazorat qilish, prognozlash, optimallashtirish va ular ustidan to'liq nazoratni ta'minlashga imkon berishini o'rgandik. Natijada, ishlab chiqarish jarayonlarining optimallasuvi, resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirishga erishilishini tahlil etdik.

Key words: raqamli iqtisodiyot, innovatsion agrotexnologiyalar, ishlab chiqarish, xarajat, sifat, tannarx, qishloq xo'jaligi, korxonalar, iqtisodiy samaradorlik.

Kirish

O'zbekistonning raqamli iqtisodiyoti sezilarli o'sishni boshdan kechirdi, 2023-yilda Axborotkommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori YaIMga 2,1% hissa qo'shdi. 2024-yilga kelib, axborot-kommunikatsiya sohasida faoliyat yurituvchi kompaniyalar soni 10551 taga yetdi. Sanoat rivojlanishining asosiy omili bo'lgan IT-Park hozirda 2500 dan ortiq kompaniyalarni o'z ichiga

oladi, AKT eksporti 2022-yildagi 140 million AQSh dollaridan 2023-yilda 344 million AQSh dollariga yetdi. Biroq, mamlakat AKT xizmatlari eksporti va importi bo'yicha jahon miqyosida past o'rinni egallashda davom etmoqda, bu uning cheklangan xalqaro raqobatbardoshligini aks ettiradi. Hukumat raqamli infratuzilmaga 2,5 milliard dollar ajratigan holda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi orqali raqamli transformatsiyani olg'a surmoqda. Elektron davlat xizmatlari kengayib, O'zbekiston

Compiled on: November 4, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Sustainability* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

jahon miqyosida 57-o'rinni egallasada, joriy etish darajasi pastligicha qolmoqda. Raqamli tafovut, ayniqsa, internetga kirish va raqamli savodxonlik cheklangan qishloq joylarida saqlanib qolmoqda. Mobil internetning kirib borishi ortib borayotgan bir paytda, 4G qamrovi shaharlarda to'planganligicha qolmoqda. Ushbu sa'y-harakatlarga qaramay, AKTni tartibga solish muhiti rivojlanmaganligicha qolmoqda, bu O'zbekistonning Tarmoqqa tayyorlik indeksi (2023) bo'yicha 134 mamlakat ichida 133-o'rinni egallashida aks etgan.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida amaldagi qishloq xo'jaligi korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni muntazam ravishda oshirib borish-bu ob'ektiv zaruriyat xisoblanadi. Sababi, mamlakatimizda yildan yilga axolini soni o'sib bormoqda. Bu esa maxsulot ishlab chiqarishni intensiv usullaridan samarali foydalanishni taqozo etadi. Intensiv usullarning yakuniy natijasi- bu raqobatbardosh maxsulot xisoblanadi. Raqobatbardosh maxsulot esa sifati yuqori va tannarxi arzon maxsulotdir.

Maxsulot sifatini oshirish masalasida qator ilmiy tadqiqotlar olib borildi va amaliy natijalar olinmoqda. Ammo tannarxni pasaytirish masalasi bugungi iqtisodiyotning markaziy masalasiga aylangan. Chunki, bugun qishloq xo'jaligida yetishtirilgan maxsulotlarning davlat xarid baholari va shu maxsulotlarni yetishtirish uchun sarf etilgan resurslarning xarid baholarining o'sishida juda katta nomutanosiblik saqlanib kelmoqda. Shu asosda qishloq xo'jaligida maxsulot yetishtirish xarajatlari ni optimallashtirish, tarmoqda eng kam xarajatlar hisobiga eng ko'p va sifatli maxsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish eng muxim iqtisodiy masallar qatoriga kiradi.

Isloxatlar jarayonida bu masalada davlatimiz tomonidan qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, agrar sohada ekinlar hosildorligini va mehnat unumdorligini yanada oshirish maqsadida Prezident Sh.M. Mirziyoyev farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi qabul qilindi.

Unda ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, qulay agrobiznes muhitini va yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, sohada ilg'or texnologiyalarni qo'llash bo'yicha qator muhim chora-tadbirlar belgilandi. 2022 yil 28 yanvarda

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni imzolandi va ushbu farmon bilan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi.

Yuqoridagilar asosida magistr tomonidan ilmiy tadqiqot uchun tanlab olgan mavzu dolzarb xisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida gi Farmoni qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 martdagi «Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, 2020 yil 27 iyundagi "Qishloq xo'jaligi va melioratsiya texnikalarini sinash va sertifikatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni ijrosini ta'minlash, jumladan, qishloq xo'jaligida erkin raqobatni ta'minlaydigan bozor tamoyillarini joriy etish, paxta va g'alla yetishtirishda davlat buyurtmasini bekor qilish, ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini va mahsulot ishlab chiqaruvchilar manfaatdorligini oshirish, investitsiyalarni keng jalb qilish hisobiga qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish vazifasi belgilangan.

Yuqorida keltirilgan xuquqiy xujjatlarning asosiy maqsadi ham eng avvalo kam xarajatlar hisobiga ko'proq va sifatliroq mahsulot ishlab chiqarish asosida amaldagi fermer xo'jaliklari barqarorligini ta'minlashdir. Qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlarni tannarxini pasaytirish masalasi umumiy iqtisodiy muammo sifatida ilmiy izlanuvchilar va amaliyotchilar tomonidan o'rganib kelingan.

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlarning baholari va sanoatda ishlab chiqarilib qishloq xo'jaligida foydalani layotgan sanoat mahsulotlarini baholari o'rtasidagi yuzaga kelgan nomuta nosiblik tarmoqni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini bozor talablariga mos xolda yanada takomillashtirishni zarurligi va boshqa shu kabi

masalalar qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlar tannarxini talab darajasidan oshib ketishiga asos bo'lmoqda.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, hamda mehnatkashlarni moddiy farovonligini yuksaltirish nafaqat iqtisodiy sohadagi, balki ko'p jihatdan ijtimoiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan bevosita bog'liqdir. Bu masalada alabatta tarmoqda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar xajmini ko'paytirish va sifatini oshirish xamda eng asosiysi mahsulot tannarxini bosqichma-bosqich optimallashtirish alohida o'rin tutadi

Tadqiqot uslublari

Mahsulot tannarxi tarkibidagi xarajatlar ichida moddiy xarajatlar xarajatlarni asosiy qismini tashkil etib, yetishtirilayotgan mahsulotlar tannarxini shakllanishida alohida ahamiyatga egadir. Shu asosda fermer xo'jaliklarida davlat buyurtmalari asosida paxta va bug'doy yetishtirishda moddiy xarajatlardan samarali foydalanish masalalarini ijobiy xal etilishi fermer xo'jaliklarida optimal samaradorlikni ta'minlashning asosiy omillaridan hisoblanadi. Yuqoridagi muammolarni xal etish bo'yicha aniq bir fermer xo'jaligi misolida ilmiy jihatdan asoslangan va amaliy ahamiyatga bo'lgan fikr muloxazalar, taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan ekanligini hisobga olib mazkur mavzu tanlangan.

Ilmiy ishning natijasi

Izlanishlar yakunlari bilan tayyorlangan ilmiy-amaliy tavsiyalar, fermer xo'jaligida xarajatlarni optimallashtirish yo'nalishlari bilan bog'liq faoliyatlari, amal qilish qonuniyatlari hamda unga ta'sir etuvchi omillarni baholash uslublari yuzasidan ishlab chiqilgan nazariy yondashuvlar mazkur soha rivoji uchun bilimlar va ko'nikmalarning boyishiga xizmat qilsa, ushbu yo'nalishlardagi viloyat va tuman dasturlarini ishlab chiqishda, amaliy chora-tadbirlar tizimini belgilashda asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan unumli, ratsional foydalanish ishlab chiqarish xarajatlarini, isrofgarchilikni kamaytirish, ishlab chiqarish renta-belligini, daromad va foydani oshirish, ishlab chiqarishni mukammal tashkilotish darajasiga bog'liq bo'ladi. Lekin har qanday

malakali mehnat resurslari va zamonaviy texnika va texnologiya, a'lo sifatdagi xomashyo, materiallar o'z - o'zidan iste'mol uchun yaroqli, foydali bo'lgan tayyor mahsu-lotga aylanib qolmaydi. Buning uchun ishlab chiqarishni, shu bilan birga mehnatni ham tashkil etish zarur bo'ladi mehnatni tashkil etish ishlab chiqarish jarayonining ajralmas qismi, ish joylarida xavfsiz, zararsiz mehnat sharoitlarini yaratish, ishchi mehnatini yengillashtirish, uning energiyasini (ish vaqtini) tejashga, mehnat madaniyatini oshirishga qaratilgan ilm-iy jihatdan asoslangan chora-tad birlar majmua'sidir.

Mehnatni tashkil etishda texnologik, texnikaviy, biologik, sotsiologik va pedagogik fanlar sohasida erishilgan yutuqlar ishlatiladi. Demak, resurslar mavjudligi hali hammanarsani hal etmaydi mavjud resurslar maksimal darajada iqtisodiy foyda beradigan sohalarga yo'naltirilishi lozim. O'zbekiston Respublikasi xilma-xil tabiiy resurslarga boy mamlakat bu vazifani mamlakat hayotida kapital va menedjment haletishi zarur.

Amerika iqtisodiyotidagi tajriba buni ma'qullaydi korxonalar bo'yicha ishlab chiqarish jarayonlari asosiy va yordamchi jarayonlarga bo'linadi: Asosiy texnologik jarayonlar yordamida xomashyomateriallarning shakli, yirikligi, tuzilishi, ko'rinishi va xususiyatlari o'zgaradi yordamchi jarayonlar asosiy jarayonlarning uzluksiz, bir me'-yorda, ritmda, mo'tadil borishini ta'minlaydi.

Ular yordamida olingan mahsulotlar asosiy ishlab chiqarishga xizmat qiladi ularga asbob anjomlar ishlab chiqarish, ehtiyot qismlar va boshqalar kiradi xizmat qiluvchi jarayonlarga asosiy va yordamchi jarayonlarning bir me'yorda muvaffaqiyatli borishini ta'minlovchi jarayonlar kiradi. Bunday ishlarni mashina sozlik korxonasida transport xo'jaliklari, ombor xo'jaliklari, mahsulot sifatini nazorat etish, energetika xo'jaliklari bajaradi lekin korxonada asosiy jarayonlar hal qiluvchi ahamiyatga ega.

– Ishlab chiqarish jarayonlarini haoytda murakkab jarayon va ular odatda bir necha fazalarga, bosqichlarga bo'linadi.

– Tayyorlov;

– Qayta ishlash;

– Yig'ish yoki mahsulot ishlab chiqarish. Har bir ishlab chiqarish fazasi bir qancha xususiy jarayonlardan iborat, ular tayyor mahsulot ustidan nisbatan tugallangan jara -yonlarni ifodalaydi

xususiylar jarayonlar texnologik jarayonlarga bo'linadi.

«Texnologik jarayon» deb, bitta ishchi yoki ishchilar guruhi tomonidan bir ish joyida mehnat qurollari (kapital) va mehnat buyumlari o'zgaragan sharoitda bajariladigan ishlab chiqarish jarayonlarining bir qismiga aytiladi. Shunday qilib, mahsulot ishlab chiqarish hajmi, sotiladigan tovarlar hajmi, ularning bahosi, xarajatlar va foyda miqdori ishlab chiqarish omillaridan iborat bo'lgan ishlab chiqarish texnologiyasiga bog'liq.

Agar firma yangi avtomobil ishlab chiqaradigan bo'lsa « mashinaning yig'uv sexlari qay darajala texnika bilan jihozlanadi, qancha miqdorda mehnat resurslari jalb etilishi kerak?» degan savollar har doim shu firmani qiziqtirib turishi lozim. Shuningdek, firma avtomobil ishlab chiqarishni ko'paytirmoqchi bo'lsa, «ishchilar sonini qanchaga oshirishi kerak, yangi korxonani qurish kerakmi yoki shu korxonani kengaytirish, quvvatini oshirish zarurmi, qaysi biri maqsadga muvofiq?» degan savollar uni o'ylantiradi. Bu xildagi savollar har qanday ishlab chiqarishga tegishli demak, ishlab chiqarish nazariyasi va xarajatlar firmani boshqarishdagi markaziy masalalardan biri hisoblanadi.

Har qanday jamiyatning iqtisodiy tizimi tabiiy resurslar, ish kuchi, texnologiya, zaruriy tadbirkorlik va boshqaruv qobiliyatini birlashtiruvchi mexanizmdan iborat. Har qanday iqtisodiy tizimning pirovard maqsadi — kishilarning ehtiyojini tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash orqali qondirishdan iborat.

– Iqtisodiy tuzumning birinchi ajralmas qismi — bu tabiiy resurslar;

– Ikkinchi qismi — ishchilar soni;

– Uchinchi qismi — mavjud bo'lgan ish kuchining sifati resurslar mavjudligi hali hamma narsani hal etmaydi mavjud resurslar maksimal darajada iqtisodiy foyda beradigan sohalariga yo'naltirilishi lozim.

Xulosalar

Ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan resurslar miqdorini o'zgartirishga turlicha vaqt ketganligi tufayli qisqa va uzoq muddatli davrlarga ajratiladi. Qisqa muddatli davr bu korxonani o'zining o'zgaras

ishlab chiqarish quvvatidan intensiv foydalanish darajasini o'zgartirish uchun yetarli miqdoridagi davr hisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayoni insoniyat taraqqiyotining hamma bosqichlariga, hamma mamlakatlarga, el-yurtlarga va xalqlarga xos bo'lib, umuminsoniy kategoriyadir. Shuning uchun bu jarayon uzoq tarixga ega bo'lib, oddiy tosh va yog'och qurollardan foydalanib, eng sodda ovchilik va dehqonchilik qilishdan tortib to hozirgi zamon murakkab texnologiyasiga asoslangan robot sozlik, samolyot sozlik, kompyuter texnikalarini, zamonaviy radio va televideniya vositalarini ishlab chiqarishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi.

Hozirgi davrda mamlakatimiz hududida bir necha yuzlab tarmoqlar va sohalar xalqimizning iste'moli va ishlab chiqarishning o'zi uchun zarur bo'lgan iste'mol buyumlari va asbob-uskunalar ishlab chiqariladi ishlab chiqarishning eng yirik sohalar sanoat, qishloq xojaligi, transport va aloqa, qurilish, savdo, tayyorlov tashkilotlari, kommunal va uy — joy xo'jaliklari, turli xil texnik va boshqa xizmat ko'rsatish sohalaridan iborat. Har bir mamlakat o'z taraqqiyotining shu davrdagi bosqichi uchun zarur va qulay bo'lgan tarmoqlar tarkibini vujudga keltirishga harakat qiladi. Bunda resurslar cheklanganligi hisobga olinib ishlab chiqarishni o'stirish va xalqning talabini qondirish uchun o'ta zarur bo'lgan, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga, chet ellar bilan bo'ladigan hamkorlikni yuksaltirishga imkon beradigan tarmoqlarga alohida e'tibor beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni.
2. B. Nosirov, M. Primqulov, F. Sobirova. Fermer xo'jaliklarida mexnatunumdorligini oshirishning innovatsion imkoniyatlari. "Ilm, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari hamda ularni iqtisodiyotga tadbiri" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to'plami. 1035-1037betlar <https://andmiedu.uz/>
3. F.I.Sobirova. Improving productivity in

animal husbandaryby improving product quality. European Journal of Agricultural and Rural Education 54-57 page Vol. 3 No. 12, December 2022 ISSN: 2660-5643 <https://www.scholarzest.com>

4. Dilyorbek Ulugbek son (2023). Work in agricultural enterprises relationships improve innovation directions innovative directions for improving labor relations in agricultural enterprises. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 3(9), 157–161. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/20869> DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.8388438>
5. H.Baratov, D.To‘lanov. Qishloq xo‘jaligida korxonalarida mehnat munosabatlarini takomillashtirish yo‘llari. Agroiqtisodiyot ilmiy-amaliy agroiqtisodiy jurnal / 2 (28) 2023.
6. Yuldasheva Shaxnoza, Olimjonova Farogat. (2023). AGRICULTURAL DEVELOPMENT POTENTIAL. INNOVATIVE RESEARCH IN SCIENCE, 2(3), 66–70. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7778308>
7. O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyoti kitobi